



SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA NASRIY ASARLARNI O'RGANISH TARIXI

M.Tursunova

Sh. Rashidov nomidagi SamDU professori
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15356648>

Nasriy asarlarni o'qish va o'rganishga bo'lgan qiziqish bugun paydo bo'lmagan. Asrlar davomida adabiyot ixlosmandlarini jalb etib kelgan. Qur'on va hadislardan tashqari, tariqat pirlaridan tashqari, tariqat pirlari haqidagi maqomatlarni, unda ifodalangan naqlu rivoyatlar, hikoyatlarni jamoa bo'lib tinglaganlar va ulardan ilhomlanganlar. Chunki maqomatlar muhim ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, xususan asrlar davomida yoshlarga o'rgatilgan.

Maqomatshunoslik Sharqda keng tarqalgan bo'lib, ilk namunalaridan biri Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy qalamiga mansub bo'lib, "Atvoq az-zahab" (Oltin shabadalar) deb nomlangan. Asar yuz maqoladan iborat bo'lib, unda pand-nasihatlar ibrotomuz hikmatlar, go'zal axloqiy o'gitlar jamlangan. Keyinchalik maqomatlarga bo'lgan qiziqish tufayli "Maqomati Hoja Ka'b ul-Akbar", "Maqomati SHayx Abdulqodir Giloniy", "Maqomati Shayx Yusuf Hamadoniy", "Maqomati Mir Kulol", "Maqomati shohi Naqshbandiya" kabi asarlar yaratildi.

Nasriy asarlarning mazmun mohiyatining o'zgarishi bois, xalq orasida "Kalila va Dimna", "Nasihatnoma", "Ming bir kecha" kabi asarlar majmuasi xam maydonga keldi. Mazkur asarlar axloqiy-didaktik va ma'naviy ruhdagi bu asarlar, mazmunan rang-barang, turli davrlar sinovidan o'tgan ibratli xazinalardir.

Ma'lumki, nasriy asarlarda voqealar tasviri, yozuvchining shaxsiyati bilan bog'liq hodisalar o'z aksini topadi. Nasriy asarlarda tasvirlanayotgan voqea va hodisalarni yozuvchi batafsil yoritib berishi bilan bir qatorda asarda ishtirok etgan qahramonlar ruhiyatini ham yoritisha muhim ahamiyatga egadir. SHu sababli nasriy asarlar o'zining to'laqonli va haqqoniy tasvir usuli bilan boshqa janrlardan keskin farq qiladi.

Nasriy asar bir butunlikni tashkil qilishi bilan, turli-tuman va jiddiy masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilarga asar haqida umumlashtirib ma'lumot berish jarayonida, ularni asar ruhiyatiga, ular uchun notanish bo'lgan tarixiy voqealar haqidagi ma'lumotlarga o'z munosabatlarini ifodalash darajasiga olib chiqish talab qilinadi.

Shu o'rinda ilk nasriy asarlar namunasi hisoblangan "O'rxun-Enasoy obidalari" O'rta Osiyoda yashagan qadimgi qabila va elatlar, klarning ijtimoiy-madaniy hayoti haqida ma'lumot beruvchi qadimiy manbalardan biridir. Bu





manba xorazmiylar, so'g'diylar, massagetlar, shaklar, turkiy qabilalar haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda ularning xo'jalik hayoti, madaniyati va san'ati haqidagi masalalarni ham qamrab olgan.


10 sinf darsligiga kiritilgan bu murakkab manbani o'quvchilarga etkazishda, eng avvalo adabiyot o'qitish metodikasining tarix fani bilan uzviy bog'liq ekanligini inobatga olmog'i lozim. Bu qadimiy yodgorlikning topilishi va nomlanishi bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar, manbaning saqlanish tarzi bilan bog'liq ma'lumotlar o'quvchilarni xabardor qilish uchun o'qituvchidan atroflicha bilim talab qilinadi.

Ma'lumki, qadimiy turkiy obida "toshbitiklar" deb ham yuritilgan. Buning sababi ko'pgina yodgorliklarning qabrtoshlariga o'yib yozilgan. Ularning eng yirigi "To'nyuquq" hamda "Kul Tegin" yodgorigidir. Bu asar matni murakkab bo'lib, unda o'quvchilar uchun tushinilishi qiyin bo'lgan so'z, so'z birikmalari anchagina. yoki asar tuzilishi bir necha qismdan iborat bo'lib, ularning har biri ma'lum fikr va ma'nolarga ega. Ularni izohlash, har binr qismni sharhlash muhim ahamiyatga egadir. Mazkur qadimiy yodgorlikda ilk adabiy atamalar, adabiy janrlar haqida ma'lumot beruvchi manba sifatida ham katta ahamiyatga egadir. Eng muhimi, bu mavzuga bag'ishlangan mashg'ulotda o'quvchilarga yodgorlikning tarixiy, ma'rifiy hamda adabiy ahamiyati haqida ma'lumot berish darsning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Murakkab nasriy asarlarni o'rganish bilan bog'liq mavzular 11 sinf darsligida ham ko'zda tutilgan. Bu mavzu bevosita Mahmud Qashg'ariy va uning "Devonu lug'ot atturk" asari bilan bog'liqdir. Bu asar uzining mazmun-mohiyati, tuzilishi bilan boshqa nasriy asarlardan alohida ajralib turadi. Bu asar 11 asrda yozilgan bo'lib, unda jamlangan badiiy-adabiy namunalar turkiy xalqlarning qadimiy ijod mahsulidir. Bu asarda tarixiy-adabiy janrlarga tegishli ma'lumotlar, adabiyotshunoslik, tilshunoslikka doir atamalar uchraydi.

"Devonu lug'ot atturk" sodda va ravon to'rtliklar, qahramonlik haqidagi qo'shiqlar, munozara janriga oid to'rtliklar (Qish va Bahor), xalq og'zaki ijodi namunalarini tashkil etgan she'riy parchalar va maqollar uchraydi.

Tabiiyki, "Devonu lug'ot atturk" keltirilgan she'riy parchalar turli mavzularni qamrab oldgan, Tabiat manzaralari, ilm-fan, odob-axloq kabi mavzular shular jumlasidandir. Asarda shuningdek, turklarning qadimiy qahramoni Alp Er To'nga haqidagi marsiya ham o'rin olgan. Bu qahramon tarixiy shaxs bo'lib, muallif u haqida bir necha to'rtliklarni kiritgan. Alp Er To'nga haqidagi marsiya shu janrning bizgacha etib kelgan eng qadimiy namunalaridan biridir.





Yoki, devonga kiritilgan qadimiy xalq maqollari ham turli mavzularga bag'ishlangan bo'lib, hozir ham milliy-ma'rifiy va badiiy ahamiyatga egadir.

O'qituvchi mazkur mavzularni o'quvchilarga etkazar ekan, darslikda namuna sifatida kiritilgan qo'shiqlarning mazmunini, ularda tasvirlangan voqealar, tabiat manzarasi, tasviriy vositalar, vazn va qofiya xususiyatlari haqida ma'lumot berishi muhim ahamiyatga egadir. 11 sinf darsligiga kiritilgan yana nasriy asarlardan biri Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asaridir. Bu asar payg'ambarlar haqidagi qissalardan iborat bo'lib, ular o'z ildizlari bilan "Qur'on" va "Hadis"larga borib taqaladi. Shu bois, bu asar xalq orasida keng tarqalgan. O'qituvchi bu asar haqida o'quvchilarga ma'lumot berishi uchun, islom dini tarixi, Qur'on va hadislardan xabardor bo'lishi talab qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Matyoqubov O. Maqomat. – T.: Fan, 2004.- 135 b.
2. Tursunova M. Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari. T.: "Mumtoz so'z" 2017. 100 b.
3. Tursunova M. Milliy ta'lim sarchashmasi // Muloqot, 2003 yil, 2-son.
4. Tojiyeva Umumta'lim maktablari adabiyot darslarida asar badiiyatini o'qitishning ilmiy-pedagogik asoslari // ilm sarchashmalari 2023-yil, 4- son, 117-119-b.

